



**MA'NAVIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISHDA TEATR SAN'ATINING
O'RNI**

Suvanova Chehroza Rustamovna,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“San'at sohasida prodyuserlik” ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola, ma'naviy tarbiyani takomillashtirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyatini tahlil etadi. Teatr, o'zining estetik va ma'naviy ta'sirini orqali shaxsiyatni shakllantirishda, axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashda va yoshlarni yuksak ma'naviyatga yo'naltirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Maqolada teatrning tarbiyaviy imkoniyatlari, uning axloqiy va estetik ta'siri, hamda yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishdagi roli keng yoritiladi. Shuningdek, teatr asarlari orqali insoniy tuyg'ular, adolat, haqiqat va muhabbat kabi universal qadriyatlar targ'ib qilinadi. Maqola, teatrning jamiyatdagi tarbiyaviy funksiyalarini yanada rivojlantirish uchun zarur choralar va takliflarni ham keltiradi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy tarbiya, teatr san'ati, tarbiyaviy ta'sir, axloqiy qadriyatlar, yosh avlod, estetik tarbiya, dunyoqarash, madaniy meros, shaxsiyatni shakllantirish, ma'naviyat.

Abstract: This article analyzes the role and importance of theater art in improving spiritual education. The theater, through its aesthetic and spiritual influence, serves as an important tool in the formation of personality, education of moral values and guidance of young people to high spirituality. In the article, the educational opportunities of the theater, its moral and aesthetic influence, as well as its role in the formation of the worldview of the young generation are widely covered. Also, universal values such as human feelings, justice, truth and love are promoted through theater works. The article also provides necessary measures and suggestions for further development of educational functions of theater in society.

Key words: Spiritual education, theater art, educational influence, moral values, young generation, aesthetic education, worldview, cultural heritage, personality formation, spirituality.

Hozirgi kunda bolalar ma'naviyati millatning ertasi bilan bog'liqligi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bir paytda teatrning ijodiy faoliyatining mahsuli bo'lmish spektakl badiiy yaxlitligi, uning sifati masalalari katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Farzandlarimiz yuragida ezgulik va go'zallik olovini yoqish, teatrga ishtiyoq uyg'otish hozirgi kunda bosh maqsadga aylandi. Shunday ekan, joriy kunlarda





“stasionlardagi” spektakllarni, ayniqsa ko‘chma va “gastrol” spektakllarni badiiyligi qay darajada ekanligi dolzarb masalaga aylandi.

Bolaning umuminsoniy, milliy ezgu g‘oyalarni, mazmun-mohiyatini anglamog‘i uchun spektakllar badiiy yaxlitlikda, mutaxassislar tomonidan qabul qilingan holatda ko‘rsatilishi lozim. Teatr san‘ati mahsuloti bo‘lmish spektakl qayerda ko‘rsatilmasin tomoshabin tafakkurini uyg‘otishi, unda fikrini ishlatishga, ishtiyoqini jonlantirish kerak. Sahna asarini mazmunli, dramatic harakatlar asosida tug‘ilgan murakkab ziddiyatlarni tomoshabinlar ular tarkibiga ilg‘or tomoshabinlar – talaba, magistr, journalist, teatrshunoslar kiradi) qalb ko‘zi bilan o‘ziga singdiradi va tafakkurda o‘sha voqelikka nisbatan munosabat paydo bo‘ladi. Albatta bu teatr san‘atini oliy maqsadlaridan biridir, lekin, ochig‘ini aytganda, ba‘zi teatrlarni yillik rejani bajarmoqchi bo‘lib qilgan harakatlari, ommaviy tomoshabin axtarib kommertsiya masalalarini shoshma – shosharlik bilan bajarishi umuman boshqa salbiy holat yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Tan olish kerak sahna bezaklari texnik sabablarga ko‘ra yengillashtirilgan, so‘zlari qisqartirilgan, sahnaviy ifodalash xususiyatlari oddiylashtirilgan ko‘chma spektakllar bolalarni vujudini parchalamoqda, didini buzmoqda. Bundan tashqari, bunday “yig‘inma”lar sahnada emas, balki bog‘chalarda yerda, ayvonchada, bo‘sh “gruppada”; maktablarda esa “faollar zal”ni prezidumlarida ko‘rsatiladi va teatr san‘atini namunali tomoshasi sifatida qabul etiladi...

Bunday “tomoshalar”ning saviyasini oshirish uchun ularni tuman yoki viloyatlardagi “sahna”si mavjud madaniyat uylarida, hokimiyatlarni majlislar va konsert uchun “zallar”ida ko‘rsatish mumkin, lekin afsuski ko‘pincha maktab yoki bog‘cha tashkilotchilari bunga yo‘l qo‘yishmaydi. Ularning aytishicha tomosha ko‘rsatilsa bas: bolalarga badiiylik emas balki syujet oqimi yetarli...

O‘lkamizning barcha viloyatlarida sodir bo‘layotgan bunday “ma’naviy-tarbiyaviy ishlar” chin insonlarni, halol mutaxassislarni tashvishga solmoqda. Bunday didbuzar, o‘rtamiyona spektakllar har doim, har qanday vaziyatda yaxshilik bilan yomonlik orasidagi ziddiyatlarni biryoqlama, ko‘r-ko‘rona, aralashtirib yuborib ko‘rsatadi. Xalq ertagida, zamonaviy ertakda hamma yaxshi, yomonni o‘zi yo‘q... Yosh avlodni ko‘nglida ezgulik va go‘zallikka moyil jihatlarini parvarish qilish o‘rniga bunday spektakllar ularni dunyoqarashini parchalaydi: tayyor xulosalar bolalarni fikrlash xislatiga chek qo‘yadi...

Respublika miqyosida 30 dan ortiq davlat teatrlari va 20 dan ortiq nodavlat teatr-studiyalari o‘z ijodiy, ijodga yaqin faoliyati jarayonida ko‘chma spektakllar ko‘rsatadi. Ba‘zilari faqat xizmat safarlarda kun kechirishadi. Satira teatri tashkil bo‘lganiga 15





yildan oshgan bo'lsada, haligacha o'z sahnasiga ega emas. "Diydor" teatri ham – "g'ildirakli teatr" hisoblanadi va faqat ko'chma spektakllar ko'rsatib daromad topadi. Lekin ushbu ikki davlat teatri (ular maosh pulini, uskuna va kommunal xizmatlari uchun mablag'ni "dotatsiya" shaklida vazirlikdan oladilar), "Ilhom", "Eski machit", "Alladin" nodavlat teatrlariga nisbatan respublika teatr festivallarida, ko'riklarida spektakllarini ko'rsatmagan. Ko'rsatgan bo'lsa ham mutaxassislar ularni ko'rmagan va matbuotda biror marotaba yoritmagan... Satira teatri, "Diydor" teatr studiyasi va boshqa davlat teatrlari barchasi o'z repertuarlaridagi bolalar uchun spektakllarini bilan ko'proq daromad topadi. Demak ularning "statsionar"dagi spektakllaridan bolalar uchun ko'rsatiladigan ko'chma spektakllari ko'proq va ular hisobotlar bo'yicha ba'zida 80% tashkil etadi. Bog'cha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, talabalar – tashkil etiladigan tomoshabin hisoblanadi. Ularni teatrga olib kelsa bo'ladi, ularni oldiga ko'chma spektakllar olib borsa bo'ladi. Son jihatidan albatta yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lsa bo'ladi. Toshkent shahri bo'yicha "O'zbekteatr" IICHB rahbariyati va shahar xalq ta'limi boshlig'i tasdiqlaydigan "Ro'yxat" (grafik) ham mavjud. Har yili tasdiqlandigan ushbu "ro'yxat" bo'yicha har bir teatr ("kattalar" uchun teatrm, bolalar teatrm) aniqlangan oyda tumanlardagi maktablarda spektakl ko'rsatishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, har bir teatr yil mobaynida 3-4 tumanlarda xizmat ko'rsata oladi va son jihatdan juda ko'p o'quvchilarga "xizmat" ko'rsatadi. Lekin bir savol tug'iladi – "kattalar" uchun teatr bu borishda o'ziga xosligini yo'qotmaydimi? Yana bir savol – sifat ko'rsatkichlarichi? Axir, bolalar teatri spesifikatsiyasi tuzilganidan beri aniqlangan. "Kattalar" teatrlarini o'ziga xosligi yo'qmi? – Mayli, deylik opera va balet, operetta, Muqimiy nomidagi musiqali teatr bolalarni va yoshlarni musiqaviy janrlarga jalb qilyapmiz, deb o'zini oqlar, lekin qolganlarichi? Satira teatri komediyalar qo'yib, o'ziga xosligini yo'qotmasin, milliy akademik teatr mafkuramiz negizidagi g'oyalarni targ'ibot etuvchi spektakllar yaratsin. Bolalar va yoshlar teatrlari esa ko'proq "statsionar" faoliyat ko'rsatib, badiiy yaxlit asarlarni o'zining tomoshabiniga to'liq ko'rsatib, o'ziga xosligini, spetsifikatsiyasini saqlasin, o'z maqomini oqlasin. To'g'ri ba'zi teatrlar respublika miqyosida o'z faoliyatini ko'rsatib o'z nomini oqlashi kerak. Bu borada ikkita misol keltirsak masalaning murakkabligi ko'rinadi.

2006-yili o'rtalarida Respublika qo'g'irchoq teatri Navoiy shahriga, Respublika yosh tomoshabinlar teatri Samarqand shahriga gastrol safariga borib kelishadi, lekin natijada faqat sifat masalasiga to'xtalsak. Samarqand shahri yosh tomoshabinlarni ko'proq ma'naviy ozuqa olishdi. To'g'ri, Respublika qo'g'irchoq teatri bir spektakl





olib borishdi, yosh tomoshabinlar teatri esa – ikkita. Lekin hamma gap – safarga kim qanday tayyorgarlik ko‘rgan, safarga ajratilgan mablag‘ni oqlaganmi yo‘qmi.

M.Ashurovaning “Assalom Navro‘z” musiqali qo‘g‘irchoq shou-konsert spektaklida 10 aktyor ishtirok etish kerak. 12 lavhadan iborat spektaklda “planshet” qo‘g‘irchoqlari ham o‘ynatiladi (bir qo‘g‘irchoqni 2-3 aktyor jonlantirishi kerak). Radist, sahna ishchisini hisobga olmasak, teatr rahbariyati “gastrol”ga faqat ikkita aktyorni yubordi. Spektaklni badiiy yaxlitligiga oldindan putur yetkazildi. Natijada safarga sarflangan mablag‘dan daromad ancha kam bo‘lib, teatr xodimlari bir necha kundan keyin qaytib kelishadi. Bundan tashqari, Navoiy shahridan norozilik xatlari ham keladi.

Respublika Yosh tomoshabinlar teatrida ijodiy safarga borishdan 2 oy oldin “Sho‘x jin” va “Zaharli tomchilar” spektakllari ustida jiddiy ish olib borildi. Ayniqsa F.Maqsudov tomonidan “stasionarda” qo‘yilgan “Sho‘x jin” O‘zbekiston xalq artisti L.Saydullayev ushbu spektaklni qaytadan sahnalashtirdi desa ham bo‘ladi.

Spektakl bolalarni psixologiyasini, istak va talablarini hisobga olib qo‘yildi. Natijada “Quvnoq jin” deb nomlangan, zamonaviy ashulalar kiritilgan, tempi, ritmi jonlantirilgan musiqali spektakl yuzaga keldi. Aktyorlarni o‘zalariga ma‘qul kelgan ushbu “variant” gastrol safaridan so‘ng asosiy sahnada ham ko‘rsatilmoqda. Mutaxassisilar va maktab tashkilotchilari xulosasiga ko‘ra: “Quvnoq jin” spektaklini tarbiyaviy ahamiyati oshdi – bolalar spektakl ko‘rsatilishi jarayonida sahnadan voqealarga o‘z munosabatlarini bildirishadi. Sahna va zal orasida ijodiy, ma‘naviy muhit o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Tohir Malikning “Alvido bolalik” asari asosida sahnalashtirilgan “Zaharli tomchilar” spektaklini ishtirokchilari soni 15 kishini tashkil etsa ham “gastrol” repertuariga kiritildi. Sahnalashtiruvchi – rejissyor O.Salimov sahnalashtirgan ushbu spektakl o‘zini “ansambl”ligi, mavzusi bilan balki asosiy qahramonlarni tavba – tazarru holatiga tomoshabinlar o‘z davrlari, ikkilanishlari bilan o‘rtoqlashishi bilan va bu ma‘noda tiniqligi va dolzarbligi bilan alohida ajralib turdi. Spektaklni “ko‘chma variantida ko‘p bo‘lmasa ham ba‘zi bir tabiiy qisqartirilishlar bo‘ldi, lekin ishtirokchilar kamayib ketib badiiy yaxlitlikka putur yetkazilmadi. Samarqand yoshlar teatr studiyasi rahbari B.Islomov bilan kelishilgan holda spektaklni ba‘zi bir lavhalariga studiyachilar kiritilishi ko‘zda tutildi. Repitetsiyalar gastrol safari oldida bir necha marta o‘tkazildi... bunday hamkorlik natijasida spektakl yanada jonlandi, dolzarbligi kuchaydi va Samarqand kollejlari, litseylari o‘quvchilarida, institut talabalarida,





Samarqand viloyati xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil qilgan tomoshabinlarda zo‘r qiziqish uyg‘otdi.

Gastrol safarini birinchi kunidayoq Respublika yosh tomoshabinlar teatri ijoskorlari H.Olimjon nomidagi musiqali teatrni sahnasiga o‘rnatilgan ovoz kuchaytirish uskunalarining yaxshi ishlamasligi natijasida jiddiy muammolarni yechishga to‘g‘ri keldi. Tezkorlik bilan Toshkentdan zamonaviy mikrofonlar, dinamiklar olib kelindi va spektakllarni badiiy yaxlitligi saqlanib qolindi. Ayniqsa, “Quvnoq jin” spektakli “partiturasiga” kiritilgan Shohruxxon va boshqa mashhur Estrada ashulachilarini qo‘shiqlari ta’sirida bolalar raqsga tushishdi – spektaklni badiiy butunligini ta’minlab berishdi.

Bugun teatr san’atida insonni ma’naviy yuksakligini yerga uruvchi g‘ayri axloqiy, biryoqlama maishiy hukmronlik qilayotgan bir paytda bolalarimizni qalbi, ezgulik va go‘zalikka tashna shuurini faqat badiiy jihatdan butun, zamonaviy shaklda qo‘yilgan sahna asarlari yoritish mumkin. O‘rtamiyona, chala-chulpa sahnalashtirilgan “tezpishar” tomoshalar madaniyatsizlikdan o‘zga narsaga boshlamaydi. Bu ma’noda, taetrning o‘zi bugun madaniy-ma’rifiy ko‘makka muhtoj bo‘lib turibdi. Demak, teatrga tahlika solib turgan bu masala madaniyat sohasi rahbarlarini, teatr san’ati mutaxassislarini jiddiy o‘ylantirishga mahbur qilishi kerak. Nega spektakl mutaxassislar qabul qilgan holatida saqlanmaydi? Axir jamoa ko‘rigidan o‘tgan spektakl, kino, televidenie, radio tasviriy san’at mahsulidek “standart” holatida ko‘rsatilishi lozinku? Joriy hayotda, prokat bilan bog‘liq jarayonda spektakl o‘sha ilk bor teatrshunos xotirasidan o‘rin olgan holatida qolish kerakku? Axir premyeradan so‘ng spektakl namunaviy teatr san’ati namoyandasi sifatida matbuotda yoritiladi, tahlil qilinib diplomlar, dissetatsiyalar, kitoblar sahifalaridan o‘rin oladi. Yarim yil, bir yildan keyin parchalangan ushbu spektakl bilan nega hech kimni ishi yo‘q? prokatdan tushib qolmay uzil-kesil holatida bolalarga to‘ppa-to‘g‘ri ko‘rsatilishi davri bilan qiziqadi? Bu ma’noda teatr mahsulini badiiy barkamollik sifatida ko‘radigan bo‘lsa, u bolaning ichki dunyosini asrab qolishi gumon bo‘lib turibdi. Buning uchun biz mutaxassislar teatrini joriy hayotidagi badiiy yaxlit spektakllar saqlanishi uchun yangi izlanishlar, ixtirolar qilishimiz kerak. Hozirgi kunda faqat ilg‘or, yetuk rejissyorlar o‘zi sahnalashtirilgan spektakllarni videoga yozib olmoqda va o‘zining sahxiy videotekasiga yig‘moqda. To‘g‘ri bu videoga yozilgan spektakllar tomoshabinga ko‘rsatib bo‘lmaydi, lekin ushbu spektaklni bir necha yillardan so‘ng repititsiya qilib tiklasa bo‘ladi yoki rejissyorni aktyorlar bilan ishlagan usullarini o‘rgansa bo‘ladi. Xullas videoga yaxshi spektakllarni yozib olishni davlat miqyosida hal qilish lozim.





“O‘zbekteatr” ICHB bu masalani yechishni boshlagandi, lekin oxirigacha yetkazmadi. bundan tashqari ma'naviy i'hlarni barakali hosilini yo'qotmaslik uchun teatrlarni joriy kunlardagi ijodiy faoliyatini o'rganib turish kerak – ko'chma spektakllarni ko'rsatish sifatini oshirish kerak, biryoqlamani “yig'indi” spektakllarni ko'rsatilishiga chek qo'yish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://www.oriens.uz/media/journalarticles/11_Baxtiyor_Amanbayev_82-87.pdf
2. <https://www.agro.uz/teatr-ma-naviy-ozuqa-maskani/>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/20172022-yillar-mobaynida-madaniyat-va-san-at-sohasida-amalga-oshirilgan-ishlar-sarhisobi>.
4. Ikromov H. Davr va teatri.–Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti., 2009.-240 b.
5. “Istiqlol va milliy” teatri. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2002.-216 b.
6. Rizaev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Shark nashriyot-matbaa Bosh taxiriyati haqida., 1997.-320 b.
7. Tursunov T. XX asr o‘zbek tarixi teatri (1900-2007). – Toshkent: Badiiy nashr., 2010.-568 b.
8. Raufovich, Fayziev Turabek, and Umaralievna Gulchehra Bahodirjonovna. "Moral as a form of spiritual culture." *International Journal on Integrated Education* 2.6 (2019): 21-22.
9. Umaralievna, Gulchehra. "SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE CONCEPT OF BIOAESTHETICS." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.6 (2024): 540-545.
10. Umaraliyeva, Gulchehra. "KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARIDA FARZAND TARBIYASIGA OID QARASHLARI." *Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal* 2.1 (2024): 200-205.
11. Umaraliyeva, Gulchehra Bahodirjonovna. "BIOESTETIKANI BILISH EVOLUTSIYASI." *Scientific progress* 2.2 (2021): 1258-1261.
12. Исоков, Зиёдулло. "САНЪАТ ВА МАДАНИЯТ–МИЛЛИЙ ТАРАҚҚИЁТИМИЗ КЎЗГУСИ." *Scientific progress* 2.2 (2021): 1273-1278.
13. Исоков, Зиёдулло. "ТРАДИЦИИ И ОБРЯДЫ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ СВЯЗАННЫЕ С НЕБЕСНЫХ СВЕТИЛЬ В ТРАДИЦИОННОМ ЗЕМЛЕДЕЛИИ И ЖИВОТНОВОДСТВЕ (ПО МАТЕРИАЛОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)." *Scientific progress* 2.2 (2021): 1420-1423.





14. Safaralievich, Isokov Ziyodullo. "The entry of theater art to Turkistan in the late XIX and early XX centuries." (2023).
15. Исоков, Зиёдулло. "Земледельческая обрядность узбеков Ферганской долины." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.10 (2024): 331-336.
16. Вахтиёр, Самиев. "THEORETICAL ANALYSIS OF THE CURRENT ACTIVITY OF CULTURAL CENTERS IN UZBEKISTAN." *International Multidisciplinary Journal for Research & Development* 11.05 (2024).
17. Umaralieva, G. B. "SPECIFIC FEATURES OF STATE AND LAW RELATIONS." *Мировая наука* 3 (36) (2020): 106-109.
18. Samiyev, Baxtiyor. "INNOVATIVE DEVELOPMENT OF CULTURE AND ART." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.5 (2024): 522-525.
19. Umaralieva, G. B. "BIOESTHETICS: HARMONY OF FORM AND MOVEMENT." *Мировая наука* 5 (38) (2020): 103-109.
20. Samiyev, Baxtiyor Norbobo O'G'Li, and Mo'Minmirzo Xolmo'Minov. "YUSUF XOS HOJIBNING BOSHQARUVGA DOIR QARASHLARI VA AXLOQIY O'GITLARI." *Oriental Art and Culture* 4.2 (2023): 359-364.

